Kafedra mudiri:

# p.f.n Erdonov Orif Latipovich

**Telefon:** (8 371) 238-64-71
**E-mail:** o.erdonov@tuit.uz

1955 yili jismoniy tarbiyava sport kafedrasi gaasossolingan. Institut talabalari bilan jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini tashkil etish uchun 1952 yilda Olimpiada oʻyinlari qatnashchisi boʻlgan, ikkinchi jaxon urushifaxriysi V.G.Fedotov ishga qabul qilindi. Jismoniy tarbiya va sport kafedrasida dastlab P.I.Donchenko, Z.F.Fedotova, keying yillarda V.Yaskov, P.I.Raxmatov, L.A.Kutyanina, S.A.Xudoshin, G.A.Levin, A.S.Korotich, Georgiev Xristoch, G.M.Lisnyak, K.Kolomenskiy, O.Abdalimov, Ye.B.Kovalskaya, T.V.Pokrovskaya, O.Pinenkova, A.Lozenko, V.I.Orlovskiy, Oʻzbekistonda xizmat kursatgan murabbiy, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent V.I.Izaak, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi B.M.Pokrovskiy, sport ustasi Y.X.Dechkova boshkalar jismoniy tarbiyava sport turlariboʻyicha seksiyalarda talabalar bilan mashgʻulotlar olib bordilar.

1970-1980 yillar kafedra mudiri V.G.Fedotov, katta oʻkituvchilar P.I.Donchenkolar sport turlariboʻyicha maxsus qurilmalar yaratib, ularni ilmiy asoslab, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldilar.

Kafedraga 1981-1991 yillar davomida respublikada katta tennis uyinlarini tashkil etishga asos solganlardan biri sport ustasi A.M. Gafitulin mudirlik qildi. Keyinchalik, unga dotsent unvoni berildi. U umrining oxirigacha kafedrada dotsent lavozimida faolishladi.

1991yilda kafedraga mudirlik lavozimiga tanlov natijalari buyicha dotsent I.A.Koshbaxtiev saylandi. 1994 yilda pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ximoya qildi va 1995 yilda professor unvonini oldi, 1996 yilda pedagogika va ijtimoiy fanlar akademiyasiga akademik, 2011 yilda xalqaro "ANTIQUE WORL”ilmiy akademiyasiga akademik boʻlib saylandi. Professor I.A.Koshbaxtiev 2000-2002 yillar davomida Bolgariya oily ligasi ishtirokchi «Levski» futbol jamoasining maslaxatchisi sifatida faoliyat koʻrsatdi. Shu yillar «Levski» jamoasi Bolgariya chempioni va kubogini olishga sazovor boʻldi. 2012 yildan kafedra professori lavozimida faoliyat olib bormokdalar.

2012 - yilda kafedraga mudirlik lavozimiga tanlov natijalari buyicha dotsent O.L.Erdonov saylandi. I.A.Koshbaxtiev ilmiy raxbarligida 2008 yilda pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya ximoya qildi va 2009 yilda kafedraga dotsent lavozimiga saylandi.

Bugungi kunga kelib kafedrada: kafedra mudiri O.L.Erdonov, professor I.A.Koshbaxtiev, dotsent I.V.Babicheva katta oʻkituvchilar: Sh.K.Kojbaxtiev; sport ustasi Ye.B.Vasileva; assistant, M.V.Moiseeva, Khalmuratov R.N. faoliyat olib bormoqdalar.

# Kafedrada o’qitiladigan fanlar

## Bakalavriat:

- Jismoniy tarbiya (barcha yo'nalishlarga)

# Kafedra professor o’qituvchilari

- Erdonov Orif Latipovich
- Koshbaxtiyev Ildar Axmedovich
- Kojbaxtiyev Shamil Xamidovich

***© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2018***

- Vasilyeva Yelena Borisovna
- Babicheva Irina Vyacheslavovna
- Maysiyeva Mariya Velerevna
- Halmuradov Ravshan Napasovich

© Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti - 2018